

Tashabbuskor talabalar taqdirlandi

Bugungi kunda yoshlarimiz bir qator yaxshi g'oyalar, loyihalarni amalga oshirmoqdalar. Ular orasida har tomonlama iste'dodli yoshlarimiz ham juda ko'p. Bugun ana shunday iqtidorli, tashabbuskor talaba-yoshlarni rag'batlantirish, maqsadida "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti faollar zalida taqdirlash marosimi o'tkazildi.



Ushbu rag'batlantirish "Navro'z" bayram arafasida talabalarni ta'tilga chiqishlariga rejalashtirildi. Bu kabi rag'batlantirish universitet rahbariyatining eng ezgu an'anasiga aylangan. Aytib o'tish joizki, bugungi kunda fakultetda tahsil olayotgan har bir talaba iqtidorli, ular orasida o'zining har tomonlama tashabbuskorligi bilan ajralib turadigan iste'dodli tashabbuskor hamda ilg'or guruh sardori a'lo baholari, jamoat ishlarida faol, o'zi o'qiyotgan guruhning chin ma'nodagi yetakchisi bo'lgan guruh sardorlari ham taqdirlandi.



Iqtidorli talabalarni fakultet dekani Sh.Narbaev, Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshovalar taqdirlandilar. Har tomonlama fa'ol, iqtidorli talabalarga bo'yinbog'lar, badiiy kitoblar taqdim etildi. Bu talabalarning ota-onalariga esa universitet rahbariyatining "Tashakkurnoma"si topshirildi.



Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini rivojlantirish, ularni qo'llab-quvvatlash uchun zarur sharoitlar yaratish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish borasidagi islohotlarni tizimli amalga oshirsak, o'ylaymizki, kelajagimiz porloq bo'ladi.



YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H. Eshova axboroti